



BANK DEPOZIT PORTFELI BARQARORLIGIGA RISK-MENEJMENT VA STRESS-TEST AMALIYOTING TA'SIRI

**Rahimov Akmal
Matyaqubovich**

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatining barqarorligi ko'p jihatdan ularning resurs bazasi qanchalik mustahkam shakllanganiga bog'liqdir. Bank resurslarining asosiy qismini depozit mablag'lari tashkil etgani sababli depozit portfelining sifati va barqarorligi bank moliyaviy holatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Depozitlar banklarga kredit operatsiyalarini kengaytirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Hozirgi davrda bank tizimida raqobatning kuchayishi, moliyaviy bozorlardagi beqarorlik hamda raqamli bank xizmatlarining kengayishi depozit operatsiyalariga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, inflyatsiya sur'atlari, foiz stavkalari o'zgarishi, milliy valyuta kursidagi tebranishlar hamda mijozlar xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar depozit portfeli barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli depozit operatsiyalarida yuzaga keladigan risklarni oldindan aniqlash va samarali boshqarish banklar faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida depozit xizmatlarini modernizatsiya qilish, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish hamda aholi mablag'larini bank tizimiga faol jalb qilish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada omonat turlari ko'payib, mobil ilovalar orqali depozitlarni boshqarish va onlayn omonat ochish amaliyoti keng rivojlandi. Biroq depozit bazasi kengayishi bilan birga banklar oldida likvidlilikni saqlash, depozit chiqib ketish xavfini kamaytirish hamda risklarni samarali boshqarish kabi vazifalar ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Depozit portfeli bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning umumiy yig'indisini ifodalabgina qolmay, bankning moliyaviy barqarorligi va likvidlilik darajasini ham aks ettiradi. Depozit portfelining tarkibi qanchalik muvozanatli shakllantirilsa, bankning resurs bazasi shunchalik mustahkam bo'ladi. Shu jihatdan depozitlarning muddatlar bo'yicha taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talab qilib olinguncha depozitlarning yuqori ulushi bank uchun likvidlilik xavfini kuchaytiradi. Chunki bunday mablag'lar mijozlar tomonidan istalgan vaqtda qaytarib olinishi mumkin. Bu esa bankni yuqori hajmdagi likvid aktivlarni saqlashga majbur qiladi. Natijada bank resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati cheklanadi. Muddatli depozitlarning ko'payishi esa bankka uzoq muddatli rejalashtirish va kreditlash hajmini oshirish imkonini beradi.

Depozit portfelining barqarorligiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri likvidlilik riskidir. Bank depozitlar bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi lozim. Agar aktiv va passivlarning muddatlari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelsa, bankda moliyaviy bosim kuchayadi. Ayniqsa, qisqa muddatli depozitlar hisobidan uzoq muddatli kreditlar ajratilishi likvidlilik muammolarini yuzaga keltirishi mumkin.

Foiz riski ham depozit operatsiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank asosiy stavkasining o'zgarishi tijorat banklarining depozit siyosatini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Yuqori foiz stavkalari qisqa muddatda depozitlarni ko'paytirishi mumkin, biroq uzoq muddatda bank xarajatlarini oshirib yuboradi. Aksincha, foiz stavkalarining pasayishi mijozlarning depozitlarga bo'lgan qiziqishini susaytirishi mumkin.

Shuningdek, depozit portfelining ma'lum mijozlar guruhiga haddan tashqari bog'lanib qolishi konsentratsiya riskini yuzaga keltiradi. Agar bank resurslarining katta qismi bir nechta yirik mijozlar hissasiga to'g'ri kelsa, ularning mablag'larni qaytarib olishi bank likvidliligiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli depozit bazasini aholi, kichik biznes va korporativ mijozlar kesimida diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi.

Depozit portfelining valyuta tarkibi ham bank barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Xorijiy valyutadagi depozitlar ulushining ortishi bankning valyuta riskiga sezgirligini kuchaytiradi. Milliy valyutadagi depozitlarning ko'payishi esa ichki moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Tijorat banklari depozit portfeli barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar¹

Mazkur risklarni baholash va boshqarishda stress-test modeli muhim vositalardan biri hisoblanadi. Stress-test orqali depozit portfelining turli salbiy iqtisodiy holatlarga nisbatan chidamliligi aniqlanadi. Jumladan, inflyatsiya darajasining oshishi, foiz stavkalarining keskin o'zgarishi, valyuta kurslari beqarorligi hamda depozitlarning ommaviy ravishda chiqib ketishi kabi holatlar modellashtiriladi.

Stress-test natijalari bankning zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

natijalar asosida uzoq muddatli depozitlarni rag'batlantirish, likvid rezervlarni oshirish, foiz siyosatini optimallashtirish va mijozlar bazasini kengaytirish bo'yicha tegishli choralar ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlash depozit oqimining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari tijorat banklari depozit portfeli barqarorligini ta'minlash bank tizimi moliyaviy xavfsizligining muhim sharti ekanligini ko'rsatdi. Depozit portfelinin muddat tarkibi, foiz siyosati, mijozlar bazasi diversifikatsiyasi hamda valyuta tarkibi bank resurs bazasining mustahkamligiga bevosita ta'sir qiladi.

Shuningdek, depozit operatsiyalaridagi likvidlilik, foiz, valyuta va konsentratsiya risklarini samarali boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Stress-test modelidan foydalanish esa ehtimoliy moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Kelgusida tijorat banklari depozit portfeli barqarorligini oshirish uchun uzoq muddatli depozitlarni rag'batlantirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, risk-menejment tizimini takomillashtirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.